



ETHICAL ENVIRONMENT AMONG FEMALE STUDENTS IN STUDENT DORMITORIES: ANALYSIS OF SOCIOLOGICAL RESEARCH RESULTS

Sardor K. Alimov

Senior Lecturer, Associate Professor, PhD,
Department of Social-Humanitarian Sciences,
Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan
E-mail address: sardoralimov2507@gmail.com
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: student dormitory, female students, moral environment, socio-psychological state, safety, psychological service.

Received: 19.09.25

Accepted: 20.09.25

Published: 21.09.25

Abstract: This article presents an analysis of a sociological study conducted among female students living in university dormitories across Uzbekistan in March–April 2025. The study examined living conditions, socio-psychological state, moral environment in dormitories, and solicited suggestions for improvement. The findings indicate that the majority of female students are satisfied with the overall living conditions and moral climate in the dormitories, yet certain issues persist regarding safety and psychological support. In the context of foreign experience (Japan, South Korea, etc.), the conditions provided for women in student dormitories abroad, safety measures, and support systems are briefly described as a comparative basis, informing recommendations for local dormitories.

TALABALAR TURAR JOYLARIDAGI TALABA-QIZLAR ORASIDA AXLOQIY MUHIT: SOTSIOLOGIK TADQIQOT NATIJALARI TAHLILI

Sardor K. Alimov

Katta o'qituvchi, dotsent, PhD,
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası
O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
E-mail manzili: sardoralimov2507@gmail.com
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: talabalar turar joyi, talaba-qizlar, axloqiy muhit, ijtimoiy-

Annotatsiya: Ushbu maqolada 2025-yilning mart-aprel oylarida O'zbekistondagi OTMlarning TTJlarida istiqomat qiluvchi

psixologik holat, xavfsizlik, psixologik xizmat.

talaba-qizlar orasida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot tahlili keltirilgan. Tadqiqot TTJlardagi yashash sharoitlari, ijtimoiy-psixologik holat, axloqiy muhitni o'rganib, uni yaxshilash bo'yicha takliflarni ishlab chiqishga qaratilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, talaba qizlarning ko'pchiligi TTJlardagi umumiy yashash sharoitlari va ma'naviy muhitdan qoniqish hosil qilmoqda, biroq xavfsizlik va ruhiy qo'llab-quvvatlash masalalarida ba'zi muammolar saqlanib qolmoqda.

НРАВСТВЕННАЯ АТМОСФЕРА СРЕДИ СТУДЕНТОК В ОБЩЕЖИТИЯХ: АНАЛИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

Сардор К. Алимов

старший преподаватель, доцент, PhD

Кафедра социальных и гуманитарных наук

Правоохранительная академия Республики Узбекистан

sardoralimov2507@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: студенческое общежитие, студентки, нравственная атмосфера, социально-психологическое состояние, безопасность, психологическая служба.

Аннотация: В данной статье представлен анализ социологического исследования, проведенного среди студенток, проживающих в общежитиях вузов Узбекистана в марте–апреле 2025 года. В ходе исследования были изучены условия проживания, социально-психологическое состояние и морально-нравственный климат в общежитиях, а также предложены предложения по улучшению. Результаты показывают, что большинство студенток удовлетворены общими условиями проживания и морально-нравственным климатом в общежитиях, однако сохраняются определенные проблемы, связанные с безопасностью и психологической поддержкой. В контексте зарубежного опыта (Япония, Южная Корея и др.) кратко описываются условия проживания женщин в студенческих общежитиях за рубежом, меры безопасности и системы поддержки, которые служат сравнительной основой для рекомендаций для местных общежитий.

Kirish. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida so‘nggi yillarda qiz-talabalarning soni va ulushi sezilarli oshdi. 2020/2021-o‘quv yilida mamlakat bo‘yicha oliy ta’lim muassasalarida jami 571,5 ming nafar talaba tahsil olgan bo‘lib, shularning 260 ming nafari yoki 45 foizini xotin-qizlar tashkil qilgan (Statistika agentligi, 2025). Bu ko‘rsatkich 2016-yil atrofida qizlar ulushi 38% ekanligi bilan solishtirganda ancha yuqori va so‘nggi yillardagi ijobiy tendensiyani aks ettiradi.

Bugungi kunda esa O‘zbekistonda jami 201 ta (100 ta davlat, 71 ta nodavlat, 30 ta xorijiy) oliy ta’lim muassasalari mavjud bo‘lib, tahsil olayotgan talabalarning umumiy soni 1 314 542 nafarni tashkil etgan. Mazkur talabalarning 656 617 nafari (50 %) ayollar, 657 925 nafari (50 %) esa erkaklar hisoblanadi. Bakalavr bosqichida tahsil olayotgan talabalarning 49,8 foizi, magistratura bosqichida talabalarning 32,6 foizini, ordinatura bosqichidagi talabalarning esa 40,2 foizi talaba-qizlar hisoblanadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda oliy ta’lim muassasalari tizimi va ulardagi talabalar soni keskin o‘ydi. Oliy ta’limni kengaytirish bo‘yicha qabul qilinayotgan strategik maqsadlar, masalan, 2030-yilga borib bitiruvchilarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish talabalarga munosib ijtimoiy sharoitlar yaratishni talab qiladi. Bu o‘z navbatida mavjud talabalar turar joylari (TTJ) sonini ko‘paytirish va ularning infratuzilmasini yaxshilash masalasini kun tartibiga chiqarmoqda. 2023-yilda respublika bo‘yicha TTJ o‘rinlari talabalarning atigi 43 foiz ehtiyojini qoplashga yetgan (Kun.uz, 2025) va ayrim hududlarda ushbu muammo yanada dolzarbdir.

Talabalar turar joylari soni va sig‘imini oshirish bilan bir qatorda, u yerdagi axloqiy muhit va ma’naviy-psixologik holat ham alohida e’tibor talab qiladi. TTJ faqat yashash joyi emas, balki talabaning ta’lim olishi, ijtimoiy tarbiya va shaxsiy kamoloti kechadigan muhitdir. Talabalarning uy sharoitidan uzilib, yangi muhitga moslashuvi, turli hudud va madaniyatlardan kelgan tengdoshlar bilan muloqoti, mustaqil hayotga qadam qo‘yishi jarayonida TTJdagi muhit hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ma’naviy jihatdan sog‘lom va qo‘llab-quvvatlovchi muhit talabalarning o‘qish samaradorligini oshirib, stress omillarini kamaytiradi. Aksincha, nizoli yoki befarq muhit esa talabaning ruhiy holatiga va akademik yutuqlariga salbiy ta’sir qilishi mumkin.

Mamlakatimizda talabalar turar joylarida yaratilgan sharoitlar va tartib-qoidalar so‘nggi yillarda takomillashib borayotgan bo‘lsa-da, ayniqsa qiz talabalarning xavfsizligi, odob-ahloq normalariga rioya etilishi va psixologik qo‘llab-quvvatlanishi masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Jumladan, ayrim TTJlarda haddan tashqari ko‘p talabalar bir xonada yashashga majbur bo‘lishi, turli bahonalarda nizolar yoki bosimlar yuzaga kelishi, shikoyat qilish mexanizmlarining murakkabligi kabi muammolar mavjudligi kuzatiladi. Bu muammolar talaba-qizlarning o‘zini erkin va xavfsiz his etishiga, ta’limga bo‘lgan motivatsiyasiga putur yetkazishi mumkin. Shunday ekan, TTJlarda ma’naviy-axloqiy muhitni doimiy ravishda monitoring qilib borish, talabalarning

fikr-mulohazalarini o'rganish hamda aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot Respublikaning barcha hududiy birliklaridagi 34 ta davlat oliy ta'lim muassasasi (OTM) talaba-qizlarini qamrab oldi. Tanlanma tarkibi kvotali usulda, ya'ni hududlar va OTMlar kesimida talabalar soniga mutanosib ravishda shakllantirildi. Jami 3312 nafar talaba-qiz respondent sifatida jalb etildi. Ular faqat davlat OTMlarida tahsil olayotgan va TTJlarda doimiy yashovchi, talaba-qizlar bo'lishi bilan chegaralandi. Respondentlarning o'rtacha yoshi 21,5 yoshni tashkil etdi. Ularning ijtimoiy-demografik tarkibiga ko'ra, so'rovda qatnashganlarning 45,5 foizi birinchi bosqich talabalari, 29,2 foizi ikkinchi bosqich, 17,8 foizi uchinchi bosqich, 7,2 foizi to'rtinchi bosqich bakalavriat talabasi, qolgan 0,3 foizi esa magistratura bosqichida tahsil olayotganlar edi. Mazkur taqsimot oliy ta'limdagi qizlar kontingenti tarkibini aks ettiradi va tadqiqot namunasining vakillik darajasini ta'minlaydi.

Tadqiqot savollari talaba-qizlarning TTJga joylashish sabablari va usullari, yashash sharoitlariga qoniqish darajasi, TTJdagi ichki tartib va muhit, nizolar va ziddiyatlar tez-tezligi, psixologik bosim holatlari, ijtimoiy-psixologik xizmatlardan xabardorlik hamda axloqiy muhitni yaxshilash borasidagi fikr-mulohazalarni qamrab oldi. Respondentlar savollarga anonim tarzda, ko'ngilli ishtirok etishdi. So'rov natijasida to'plangan birlamchi ma'lumotlar SPSS statistik dasturiy ta'minoti yordamida kodlanib, tahlil qilindi.

Natijalar. So'rovda qatnashgan talaba-qizlarning aksariyati (75 foizdan ortig'i) bakalavriatning 1–2-bosqich talabalari bo'lib, bu ularning yosh jihatdan nisbatan kichik (ko'pchiligi 18–22 yosh oralig'ida) ekanligini ko'rsatadi. Talabalar sonining keskin oshishi sharoitida birinchi bosqichga qabul qilingan va boshqa turar joy imkoni bo'lmagan qizlar TTJga joylashtirilishda ustuvor toifani tashkil etmoqda. So'rov natijalariga ko'ra, talaba-qizlarning 26,8% TTJga “birinchi kursga o'qishga kirgani va shartnoma asosida tahsil olayotgani sabab” joylashganini aytgan (ya'ni OTM tomonidan belgilangan rasmiy mezonlar bo'yicha). Bundan tashqari, 22,1% talaba “tavakkal ariza yozib”, ya'ni belgilangan kvota doirasida omadini sinab ko'rib TTJga qabul qilinganini bildirgan (ayniqsa, viloyatlarda aksar talabalar oilasidan qatnab o'qishi yoki poytaxtda TTJga talab pastroq bo'lishi bunga sabab sifatida keltirilgan). So'rovga ko'ra 13,6% qiz dekanat tavsiyasi orqali, 12,8% ijtimoiy jihatdan kam ta'minlangan oila a'zosi bo'lgani uchun, 12,4% esa “qiz bola bo'lgani uchun” TTJga joylashtirilganini bildirgan. Shu bilan birga talabalarning 10,5% a'lo baholarda o'qishi va jamoat ishlarida faolligi tufayli imtiyoz asosida joylashgan. E'tiborlisi, so'rovda 0,9% respondent TTJga “pul yoki ma'lum xizmat evaziga” kirganini, 0,4% esa “tanish-bilish orqali” joylashganini tan olgan. Ya'ni, rasmiy mezonlardan tashqari, kichik bir qism (taxminan 1–2%) talaba-qizlar yotoqxonaga kirishda

norasmiy yo'llarga murojaat qilganini ko'rsatgan – bu raqam yuqori bo'lmasa-da, TTJlarga qabul jarayonida adolat va shaffoflikni yanada oshirish lozimligini anglatadi.

Talaba-qizlarning TTJda yashashga motivatsiyasini o'rganish natijalariga ko'ra, ular tomonidan eng ko'p qayd etilgan sabab – “TTJ talaba-qizlar uchun eng maqbul va xavfsiz joy” ekanligidir. So'rovda ishtirok etganlarning 42,8% aynan shu javobni tanlagan bo'lsa, 21,0% talaba shaharda turar joyi va qarindoshlari yo'qligi tufayli TTJni tanlaganini aytgan. Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, TTJda yashash qarori ko'proq ijobiy omillar (xavfsizlik, maqbullik, ijtimoiy muhit) bilan izohlanadi; TTJlarning ijtimoiy infratuzilmasi va sharoitlari so'nggi yillarda yaxshilanib borayotgani ham talabalar tomonidan e'tirof etilmoqda.

Tadqiqotda talabalar turar joylaridagi axloqiy-ma'naviy muhit (talabalar jamoasidagi ruhiyat, o'zaro hurmat va qo'llab-quvvatlash darajasi) qandayligiga alohida e'tibor qaratildi. So'rov natijalariga ko'ra, qizlarning 42,0% TTJdagi muhitni “juda yaxshi – do'stona, iliq, samimiy” deb baholagan bo'lsa, 37,4% “yaxshi – ayrim kamchiliklar bo'lsa-da, hal etish mumkin” deb topgan. Ya'ni umumiy hisobda 79,4% respondent yotoqxonadagi ma'naviy muhitni ijobiy qabul qilmoqda. 18,0% qiz “o'rtacha – ham yaxshi, ham yomon tomonlari bor” degan baho bergan va atigi 2,6% talaba (1,8% “yomon”, 0,8% “juda yomon”) salbiy baho bildirgan. Bu ko'rsatkich juda yuqori darajadagi ijobiy muhit hukm surayotganini anglatadi. Haqiqatan ham, so'rovda talaba-qizlarning yarmidan ko'pi (57,8%) agar imkoniyat bo'lsa ham TTJdan kvartiraga ko'chib ketishni istamasligini, yotoqxonada yashashni davom ettirishni afzal ko'rishini aytgan, bu yotoqxona ular uchun haqiqatan ham qulay va xavfsiz maskan ekani dalilidir.

Shu bilan birga, ijobiy muhitni tahdid qiluvchi salbiy holatlar ham yo'q emas. Qizlarning 18% “o'rtacha” bahosi ham aynan ba'zi muammolar borligini ko'rsatib turibdi. Tadqiqot davomida talaba-qizlardan TTJdagi qizlar o'rtasida eng ko'p uchraydigan salbiy holatlar nima ekanini sanab o'tish so'raldi. Javoblar orasida “g'iybat va ortdan gapirish” hodisasi birinchi o'rinda turdi. Ikkinchi o'rinda “beg'amlik va befarqlik” ya'ni qizlarning bir-biriga nisbatan e'tiborsiz bo'lishi, boshqalarning muammolariga bee'tibor qarashi qayd etildi. Keyingi keng tarqalgan salbiy holatlar sirasida “o'zaro hurmatsizlik va haqoratomuz so'zlar ishlatish” (14,7%) hamda “turli kurslarda o'qiydigan qizlar o'rtasidagi ziddiyatlar” (13,3%) tilga olindi. Shuningdek, ayrim qizlar “rashk, hasad yoki guruh-guruh bo'linish” (7,9%), “yigitlar tufayli yuzaga keladigan nizolar” (3,2%) va “kuchli bosim yoki manipulyatsiya” (2,7%) kabi holatlarni ham salbiy jarayonlar qatorida zikr etdi. Ko'rinib turibdiki, bu salbiy hodisalar nisbatan kamchilik qismga xos bo'lsa-da, jamoaning ma'naviy muhitiga putur yetkazishi mumkin. Ayniqsa g'iybat va befarqlik kabi illatlar qizlar o'rtasida o'zaro ishonch va birdamlikka rahna solishi ehtimoldan yiroq emas.

Shunga qaramay, talabalar jamoasida o'zaro munosabatlarning umumiy holatda ijobiyligi tadqiqot davomida tasdiqlandi. Darhaqiqat, TTJ ichidagi mikrojamodalarda (xonadoshlar,

qavatdoshlar doirasida) ham ijobiy va hamjihatlik ruhidagi munosabatlar hukmron bo'lib, ko'pchilik qizlar o'zini jamoada erkin va qo'llab-quvvatlangan his qilishini ta'kidlashgan.

Bugungi talabalar hayotida stress va ruhiy zo'riqish muammolari dolzarb ekani ma'lum. Ayniqsa, TTJda yashash jarayonida uyidan yiroqda bo'lish, o'qish yuklamasi va shaxsiy muammolar birikib, turli darajadagi stress holatlarini keltirib chiqarishi mumkin. So'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, TTJdagi yashash va o'qish sharoitlari talabalarning ruhiyatiga asosan ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda: respondentlarning 64,6% yotoqxonadagi sharoitlar "o'qishga bo'lgan intilishni kuchaytiradi" deb hisoblagan. Biroq 20,3% qiz "sharoitlarning o'qishga ta'siri yo'q, hammasi o'ziga bog'liq" deb aytgan, 5,4% esa aksincha "salbiy ta'sir ko'rsatadi, stress uyg'otadi" degan fikrda bo'lgan. Demak, muhitning aksariyat uchun motivatsion rol o'ynashi bilan birga, kichik bir guruh talaba uchun moslashish qiyinligi kuzatilmoqda.

Xorijiy tajribaga murojaat etsak, Janubiy Koreya universitetlarida deyarli har bir katta OTMda talabalar uchun professional psixologik maslahat markazlari faoliyat yuritadi. Ba'zi universitetlarda xotin-qiz talaba va xodimlar uchun ixtisoslashgan maslahatchilar (masalan, ayol psixologlar) xizmat qiladi, bu qizlarga o'z muammolarini erkinroq bayon etish imkonini beradi. Bundan tashqari, kampuslarda giyohvandlikka qarshi, zo'ravonlik va tazyiqning oldini olishga qaratilgan telefon ishonch liniyalari tashkil etilgan. Masalan, xususiy SolBridge xalqaro biznes maktabida talabalarga xavfsizlik yoki ahvol yomonlashganda darhol murojaat qilish uchun studentlar xizmati xodimlari bilan bog'lanish tavsiya etiladi, agar bu imkonsiz bo'lsa 119 milliy tez yordam raqamiga qo'ng'iroq qilish kerakligi har bir talabaga uqtirib qo'yilgani ma'lumot sifatida keltiriladi (SolBridge International School, n.d.).

Muhokama. Yuqorida taqdim etilgan natijalar O'zbekiston TTJlaridagi axloqiy-psixologik muhitning umumiy manzarasini ochib berdi. Umuman olganda, ahvol qoniqarli deb baholanishi mumkin: ko'pchilik talaba-qizlar TTJda yashashdan mamnun, u yerdagi muhitni iliq va xavfsiz deb biladi. Bu, shubhasiz, so'nggi yillarda davlat va OTMlar miqyosida talabalar uchun shart-sharoitlarni yaxshilashga qaratilgan sa'y-harakatlar samarasidir. Xususan, ta'lim muassasalari talabalari sonining oshishi ortidan yotoqxona sig'imi kengaytirilgani, mavjud binolarda ta'mirlash va jihozlash ishlari olib borilgani natija bermoqda. Talabalar turar joylarida tarmoq Internetga ulanish, o'quv xonalari, kutubxona va sport maydonchalari kabi infratuzilma yaxshilangan sari, talabalar o'z vaqtini samarali o'tkazish va o'qishga tayyorgarlik ko'rish imkoniga ega bo'lmoqdalar. Tadqiqot natijalarida aks etgan yuqori qoniqish darajasi va TTJni afzal ko'rish holatlari bunga dalildir.

Shu bilan birga, mavjud muammolar e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Masalan, yotoqxonalarda ayrim salbiy illatlar kuzatilishi talaba-qizlar jamoasidagi tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi. Bu muammolar to'g'ridan-to'g'ri yoshlarning axloqiy

tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, ular maktab va oilada boshlangan tarbiya jarayonining yotoqxonada davom etayotgan qismidir. Demak, talabalarning axloqiy ongini yuksaltirishga qaratilgan tadbirlar uzviy ravishda olib borilishi lozim. Yotoqxonalarda ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni talabalar qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashtirish muhimligi ham natijalardan kelib chiqdi, ba‘zi tadbirlarning rasmiy xarakterdaligi ularning samaradorligini pasaytirmoqda. Shu sabab, TTJ tarbiyaviy ishlar rejalarini tuzishda bevosita talabalar fikrini inobatga olish, ular bilan maslahatlashish tavsiya etiladi.

Ko‘pchilik qizlar ziddiyatlarga duch kelganda TTJ rahbariyatiga yoki murabbiylarga murojaat qiladi, ammo rasmiy organlarga (ichki ishlar organlari, ishonch telefoni) murojaat qilishdan cho‘chishadi. Bu holat o‘z-o‘zidan hal bo‘lmaydi; buning uchun talabalar o‘rtasida huquqiy tushuncha oshirilib, ishonchli va qulay shikoyat qilish mexanizmi yaratilishi lozim. Masalan, TTJlarda anonim murojaat qutilari, onlayn platformalar joriy etilishi mumkin, bu orqali qizlar o‘z muammosini ochiq aytishga tortinmaydi. Xorijiy amaliyotda, masalan, Koreya universitetlarida maxsus Inson huquqlari markazlari yoki Gender tengligi bo‘limlari faoliyat yuritib, talabalar o‘rtasidagi kamsitish, ta‘qib va tazyiq holatlarini nazorat qiladi va hal qiladi. Bu kabi institutlarni bizning oliy ta‘lim tizimimizda ham joriy etish ijobiy samara berishi mumkin.

Xorijiy tajriba bilan solishtirilganda, ko‘plab jihatlar bo‘yicha bizning yotoqxonalardagi ahvol yomon emas. Masalan, Janubiy Koreya va Yaponiya misolida ko‘rilsa, u yerda ham talabalarning eng katta tashvishlaridan biri xavfsizlik bo‘lib, bunga doir qat‘iy qoidalar joriy etilganligi yuqorida keltirildi (KCP International, n.d.). Umuman olganda, ushbu tadqiqot natijalari TTJlarda axloqiy muhitni yanada yaxshilash uchun tizimli yondashuv zarurligini ko‘rsatdi. Talabalar turar joyida istiqomat qiluvchi qizlarning ijtimoiy, psixologik va ma‘naviy ehtiyojlari tizimli tarzda hal qilinishi lozim: bir tarafdin munosib yashash sharoiti, xavfsizlik va tartib-intizom, ikkinchi tarafdin qo‘llab-quvvatlovchi ruhan sog‘lom jamoa va zarur maslahat xizmatlari mavjud bo‘lsa, yotoqxona haqiqiy “ikkinchi uy”ga aylana oladi.

Xulosa. O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalari talabalar turar joylarida yashovchi talaba-qizlarning axloqiy muhitiga oid o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mavjud muhit asosan barqaror va ijobiy bo‘lib, talabalar ko‘pchiligi TTJdagi sharoitlar va o‘zaro munosabatlardan qoniqadi. Talaba-qizlar TTJni xavfsiz va qulay maskan deb biladi, bunda ayniqsa do‘stona jamoa va nazorat ostidagi intizomiy tartib muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, tadqiqot davomida ayrim muammo va kamchiliklar aniqlangan: xususan, ba‘zi yotoqxonalarda bir xonaga ko‘p talaba joylashtirilgani, ayrim talabalar o‘rtasida nizoli holatlar uchrab turishi, ruhiy bosim (psixologik tazyiq) holatlari mavjudligi qayd etildi. Talaba-qizlarning huquqiy savodxonligi pastligi tufayli ular bunday holatlarda tegishli organlarga murojaat qilmasligi, muammolarni “ichida saqlashi” holatlari kuzatilmoqda. TTJlarda psixologik xizmatlarning to‘la yo‘lga

qo'yilmagani, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning sifat darajasi ham har doim talabga javob bermasligi ma'lum bo'ldi.

Umuman olganda, axloqiy muhitni shakllantirish omillari sifatida talabalar eng avvalo tengdoshlar o'rtasidagi samimiy munosabatlar va oilaviy qo'llab-quvvatlashni ko'rsatishgan bo'lsa, rahbariyat nazorati ham muhim o'rin tutadi. Demak, yotoqxonalarda axloqiy muhitni yaxshilash borasida kompleks yondashuv zarur: bunda talabalar jamoasining o'zi faolligi va birdamligi rag'batlantirilib, shu bilan birga ma'muriyatning adolatli tartib-intizom nazorati va zarur xizmatlarning mavjudligi ta'minlanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Statistika agentligi. (2025, fevral 11). Talaba qizlar haqida rasmiy ma'lumot. Telegram. https://t.me/statistika_rasmiy/1240
2. Kun.uz. (2025, yanvar 27). O'zbekistonda talabalar turar joylari bo'yicha yangilik. <https://kun.uz/42790325>
3. Alimov, S. K. (2023). Ayollarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olishda kompleks tizimli yondashuv: xalqaro tajriba. *Academic research in educational sciences*, 4(1), 436-446.
4. SolBridge International School. (n.d.). Campus security. SolBridge International School. <https://solbridge.ac.kr/story/main/index.jsp>
5. Nargiza, A. (2024). Analysis of Gender Paradigms in the West and the East: An Example of Visual Arts.
6. Amirovna, Z. A. (2022). Theoretical and Practical Aspects of Environmental Ethics of Their Manifestation in Society. 5 B.
7. Alimov, S. K., & Alimova, N. R. (2023). Kiberstalking: turlari, ko'rinishlari va ijtimoiy oqibatlar. *Academic research in educational sciences*, 4(7), 106-113.
8. Saydivaliyeva, X. X., & Akramova, I. A. (2023). Gender tengligini ta'minlashda xalqaro reyting va indeksning ahamiyati: Ayollar, tinchlik va xavfsizlik indeksi (WPS). *Academic research in educational sciences*, 4(3), 54-60.
9. KCP International. (n.d.). Any dorm rules I need to know? KCP International. <https://www.kcpinternational.com/faq/dorm-rules/>